The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	
Oliy ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirish orqali verbal zo'ravonlikni bartaraf etish texnologiyalari	817
Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi	
Tashvishli buzilishlarni korrektsiya qilishda kognitiv-bixevioristik terapiya usullari	821
Sattarova Shaxnoza Qo'chqarovna, Xamroyeva Zarina Shaxriyevovna	



Rahbar va pedagogik muhit: nazariy va amaliy asoslar	824
<i>Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Gaziyeva Nigora Shamsiddinova</i>	
O'smirlik – deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatida	827
<i>Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi</i>	
Цифровые образовательные технологии как средство формирования коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному	830
<i>Ескараева Г. Б.</i>	
Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	833
<i>Muxiddinova Nilufar Baxodirovna</i>	
Talabalar mediakompetentligini baholash usullari va mezonlari	839
<i>Alimov Zokir Chori o'g'li</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasi orqali tabiiy fanlarni o'qitish va o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish	844
<i>Ergasheva Malohat Tursunovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash mezonlari	847
<i>Hamzayeva Nigina Azamjonovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda fanlararo bog'liqlik	852
<i>Musayeva Dilfuza Abdurahmonova</i>	
Ta'limda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodlar tizimini ilmiy tahlil qilish	857
<i>Kobulova Maktuba Urmonjonovna</i>	
Shaxs psixologik portreti va unga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	862
<i>Ataqulov Bekzod Abdurashitovich</i>	
Zamonaviy didaktik paradigmadagi talabalar ta'lim natijalarini tashxislash	866
<i>Tursunova Feruza Otaqulovna</i>	
Ingliz tilini bilishning sport talabalari uchun ahamiyati	869
<i>Azimova Umirxon Odilovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	

Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoz Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	



TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK BOSHQARUV USLUBLARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MEXANIZMLAR

Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna

JDPU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: O'zbek oilalarida farzand tarbiyasining mazmun-mohiyati, tarbiya jarayonida qo'llaniladigan pedagogik boshqaruv uslublari, yondashuvlar hamda metodlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh ota-onalar uchun farzand tarbiyasini samarali tashkil etish bo'yicha zarur va amaliy tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, oila, farzand, farzand tarbiyasi, ota-ona, o'smir, xarakter, xulq-atvor, axloq, munosabat, ishonch, jamiyat, ijtimoiylashuv, mustaqil fikrlash, erkin shaxs.

Abstract: The content and essence of child upbringing in Uzbek families are analyzed, along with the pedagogical management styles, approaches, and methods used in the educational process. Important and practical recommendations are also provided for young parents on the effective organization of child upbringing.

Key words: upbringing, family, child, child upbringing, parent, adolescent, character, behavior, morality, attitude, trust, society, socialization, independent thinking, free personality.

Аннотация: Рассматриваются содержание и сущность воспитания детей в узбекских семьях, а также стили педагогического управления, подходы и методы, применяемые в процессе воспитания. Представлены важные и практические рекомендации для молодых родителей по эффективной организации воспитания детей.

Ключевые слова: воспитание, семья, ребёнок, воспитание детей, подросток, характер, поведение, мораль, отношение, доверие, общество, социализация, независимое мышление, свободная личность.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotgani yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

So'nggi yillarda respublikamizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Respublika rahbariyati boshchiligidagi mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, zamon talabiga va jahon standartlariga javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Shu asnda, mustaqillik sharoitida mamlakatimizda buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish maqsadida yetuk kadrlar tayyorlash ishini jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "...intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekan, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q", – deya ta'kidlagan edi. Zero, ta'lim tizimini ilg'or tajribalar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida samarali tashkil etish orqali yoshlarni mustaqil fikrlovchi, tafakkuri keng, zukko va bilimli qilib tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Zamonaviy pedagogikaning rivojlanish jarayonida oiladagi bola tarbiyasi juda muhim ahamiyatga ega. Oilada bolaning taraqqiyoti, o'qishga qiziqishi, ijodiy qobiliyatlari va ijtimoiy tushunchalari oila tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Bola tarbiyasi davlat, oila va madaniyatning o'zaro ta'siriga bog'liqdir.

Oila tarbiyasi – bu oilada ota-ona, vasiy yoki katta yoshdagi kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash jarayonidir. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida oila tarbiyasi muhim o'rin tutadi.

Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

- oilada ruhiy xotirjamlik;
- samimiy munosabat;
- ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi;
- bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi;
- bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish;
- bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish;
- oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish;
- bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;
- boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish;
- undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash.

Oila tarbiyasida obyektiv va subyektiv omillar mavjud bo'lib, farzand tarbiyasida ushbu omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Obyektiv omillarga oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila budjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolarni kiritish mumkin. Subyektiv omillarga oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik va madaniy jihatdan komilligi hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam, hamkorlik va birlik tamoyillariga tayanish kabilar kiradi.

Oilalarda bolalarga tarbiya berishda ota-onaning namunasi, ularning mehnatsevarligi, oilaviy ishlarga javobgarligi va ish yuritish madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. O'g'il bolalarga nisbatan otaning, qizlarga esa onaning ustozlik va rahnamolik ishlari asosiy o'rinni egallaydi.

“Bolaning xatti-harakati va muomalasiga qarab, uning qanday oila muhitida ulg'ayganini osongina bilib olishimiz mumkin. Chunki bolaning xatti-harakatlari oila a'zolarining unga qilgan muomalasi, yondashuvi va munosabatiga ko'ra shakllanadi” [7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogika fanida tarbiya jarayonini samarali tashkil etish hamda unda pedagogik boshqaruv uslublarining o'rni ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Sh. Abdullayeva o'zining “Umumiy pedagogika” nomli o'quv qo'llanmasida tarbiya jarayonining nazariy asoslarini, shuningdek, pedagogik ta'sir va boshqaruv mexanizmlarining shaxs kamolotidagi ahamiyatini atroflicha yoritadi. Muallif tarbiya jarayonida oila, ta'lim muassasasi hamda ijtimoiy muhitning o'zaro hamkorligi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarbiyaviy jarayonni samarali boshqarish shaxsning axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik boshqaruv va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish masalalari B. Abdullayeva, A. Xoliqov va D. Farsaxonova tomonidan tayyorlangan “Umumiy pedagogika” asarida ham keng yoritilgan. Ushbu asarda tarbiya jarayonida qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar, uslublar hamda ularning amaliy mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mualliflar tarbiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik boshqaruvning to'g'ri tanlanishi, shuningdek, oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bog'liqligini qayd etadilar.

D. R. Farsaxonova o'zining “Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'qitish texnologiyasi” asarida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning zamonaviy metodlari hamda pedagogik boshqaruvning metodik jihatlarini tahlil qiladi. Muallif tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishda pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuvlar hamda innovatsion usullardan foydalanish muhimligini asoslab beradi. Shuningdek, uning ilmiy maqolalarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda milliy g'oya tuyg'usini shakllantirish jarayonida pedagogik boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Oila muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri masalasi ko'plab xalqaro tadqiqotlarda ham alohida o'rin egallaydi. Masaru Ibukaning “Uchdan keyin kech” asarida bola tarbiyasining dastlabki bosqichlari shaxs shakllanishida hal qiluvchi omil ekani ta'kidlanadi. Muallif bolaning ilk yosh davrida ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi, muomala madaniyati va pedagogik boshqaruv uslublari uning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishini ilmiy va amaliy misollar orqali asoslab beradi.

Oila tarbiyasi va ota-onaning pedagogik madaniyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar Janten Kaya hamda Xadicha Kubro Tongarning asarlarida ham keng yoritilgan. Janten Kaya “Bola eshitganini emas, ko'rganini qiladi” asarida ota-onaning shaxsiy namunasi bolalar tarbiyasida muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Xadicha Kubro Tongar esa “Baqirmaydigan onalar” asarida bolalar bilan sog'lom pedagogik muloqotni yo'lga qo'yish,



mehr va hurmatga asoslangan tarbiyaviy muhitni shakllantirish zarurligini asoslab beradi. Shuningdek, "Yosh ota-ona kitobi" qo'llanmasida oilada farzand tarbiyasini tashkil etishning ma'naviy-pedagogik asoslari hamda ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyati keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublarining mazmuni va samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Avvalo, pedagogika va tarbiya nazariyasiga oid ilmiy manbalar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar hamda uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi. Adabiyotlarni o'rganish orqali pedagogik boshqaruv uslublarining nazariy asoslari, ularning tarbiya jarayonidagi o'rni hamda oilaviy tarbiya tizimidagi ahamiyati aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida kuzatish va taqqoslash usullaridan ham foydalanilib, turli oilalarda qo'llanilayotgan tarbiya uslublari hamda ularning farzand shaxsiy rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, pedagogik tahlil usuli orqali mavjud tajribalar umumlashtirildi va turli yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari aniqlab chiqildi. Olingan ma'lumotlar mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlari asosida qayta ishlanib, pedagogik boshqaruv uslublarining tarbiya jarayonidagi samaradorligi baholandi. Natijada oilaviy tarbiya jarayonida qo'llaniladigan boshqaruv uslublarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning farzand shaxsining shakllanishiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oilada farzand tarbiyasidagi boshqaruv uslublariga quyidagilar kiradi:

1. Avtoritar uslub;
2. Liberal uslub;
3. Gepper himoya uslubi;
4. Butkul befarqlik uslubi;
5. Demokratik uslub.

Avtoritar tarbiya uslubida ota-onalar bolaning tashabbusini bo'g'ish, uning harakatlarini qat'iy boshqarish va nazorat qilishga harakat qiladilar. Tarbiyada asosan eng kichik nojo'ya xatti-harakatlar uchun majburlash, baqirish, taqiqlash hamda jismoniy jazolardan foydalanadilar. Bu uslubda bolalar ota-onalarning mehridan, g'amxo'rlikidan va hamdardligidan mahrum bo'ladilar.

Mazkur uslubda farzand tarbiyalanganda, bola o'sib-ulg'aygan sari avtoritar ota-onaga toqat qila olmay qoladi. O'smirlilik davrida tez-tez to'qnashuvlar, nizolar hamda boshqalarga dushmanlik bilan munosabatda bo'lish kabi holatlar yuzaga keladi. Ota-onalar har doim bolaning o'rniga qaror qabul qiladilar, bu esa farzandda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan qochishga olib keladi. O'smirlilik davrida bolada agressivlik, tajovuzkorlik va qarshiliklar yuzaga keladi, hattoki uydan qochishga olib kelishi mumkin. O'zini past baholaydigan, uyatchan va ishonchsiz o'smirlar esa, aksincha, hamma narsada ota-onasiga bo'ysunishga odatlanib qoladilar, o'z muammolarini mustaqil ravishda hal qilishga urunmaydilar va har doim ota-onalariga suyanadigan bo'lib qoladilar, mustaqil qaror qabul qila olmaydilar.

Liberal tarbiya uslubida barcha narsaga ruxsat berish va past intizom tamoyiliga asoslanadi, farzandning faoliyatiga aralashmaslik, chetdan turib kuzatish pozitsiyasi yuqori bo'ladi. Bola "imkonsiz" so'zini tushunmaydi, kattalarning ko'rsatmalari va talablariga rioya qilmaydi. Liberal ota-onalar g'amxo'r, e'tiborli va farzandlari bilan juda yaqin munosabatlarga ega. Ular bolaga o'zini namoyon qilish, o'z qobiliyatlarini ko'rsatish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va individualligini ochish imkoniyatini beradi. Lekin liberal ota-onalar o'z farzandlariga chegara qo'yishda qiynaladilar.

Liberal uslub natijasida bola xudbin, ziddiyatli, doimo atrofdagi odamlardan norozi bo'lib ulg'ayadi, bu esa unga normal ijtimoiy munosabatlarga kirishish va odamlar bilan kuchli hissiy aloqalar o'rnatish imkoniyatini bermaydi. Maktabda bunday bola tartib-qoidalarga rioya qilishga odatlanmaganligi sababli tez-tez konfliktlarga duch kelishi mumkin. Bu muhitda o'sgan bola psixologik muammolar, fobiya va depressiyaga ko'proq moyil bo'ladi. Bola hayot qiyinchiliklariga dosh bera olmaydi va ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu, o'z navbatida, o'z-o'zini hurmat qilish va o'zini-o'zi qadrlashning yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi.

Gepper himoya (haddan tashqari himoyalangan) tarbiya uslubida ota-onalar bolani jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishda mustaqillikdan mahrum qiladilar. Ular doimo farzandlarining yonida bo'ladilar, uning muammolarini o'zi uchun hal qiladilar. Ular farzandlariga haddan tashqari g'amxo'rlik qiladilar, sog'lig'idan tashvishlanadilar.



Ushbu uslubda farzand tarbiyalash natijasida bola ojiz, o'ziga ishonchsiz, xavotirlanadigan holda o'sadi. Keyinchalik u ijtimoiylashuvda qiyinchiliklarga duch keladi. Bolalar o'zlariga, o'z imkoniyatlariga ishonchsiz bo'lib, doim xato qilishdan qo'rqadilar. O'smirlik davrida bola ota-onaning haddan tashqari nazoratidan qochishga intiladi. Cheklash va taqiqlar bolaning aldash qobiliyatini rivojlantiradi. Farzandlarning "onaning o'g'il-lari" bo'lib o'sishiga olib keladi.

Butkul befarqlik uslubida ota-onalar farzandning shaxsiyatiga butkul befarqlik namoyon etadilar. Ota-onalar bolani "sezmaydilar", uning rivojlanishi, ruhiy ichki dunyosi bilan qiziqmaydilar, uni o'zlaridan uzoq tutadilar. Bunday uslub asosan nosog'lom oilalarda va farzand tarbiyasini vasiyga qoldirib ketgan migrant ota-onalarda uchrashi mumkin.

Bu uslub natijasida bola yolg'iz va ishonchsiz bo'lib qoladi. U muloqot qilish istagini yo'qotadi, kommunikativ qobiliyati yaxshi rivojlanmaydi, odamlarga nisbatan tajovuzkorlik shakllanishi mumkin. E'tiborsiz qoldirilgan o'smirlar ko'pincha jinoyatchilik muammosiga duch kelishlari mumkin.

Demokratik uslubda ota-onalar bolaning har qanday tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantiradi, bolaning ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga oladilar. Bolaga mehrini sezdiradilar, bola bilan birga vaqt o'tkazishdan xursand bo'ladilar. Ota-onalar bolaga oilaviy muammolarni muhokama qilishda ishtirok etish va qaror qabul qilishda uning fikrini hisobga olishga e'tibor beradilar. Shu bilan birgalikda farzand tarbiyasida intizomga rioya etishni qat'iylik va izchillik bilan qo'llab-quvvatlaydilar.

Demokratik uslub natijasida bola faol, izlanuvchan, mustaqil, o'zlari va yaqinlari uchun qadr-qimmat hamda mas'uliyat hissi rivojlangan shaxs bo'lib yetishadi. Bolalar maktabda yaxshi o'qiydilar, tengdoshlarining salbiy ta'siriga kamroq moyil bo'ladilar va atrofdagilar bilan ijobiy, faol munosabatga kirisha oladilar. Bola mas'uliyatli, mustaqil, malakali, o'ziga ishongan, o'z xohish-istaklarini nazorat qila oladigan shaxs bo'lib shakllanadi.

Mazkur uslublarning har qaysisi ma'lum bir oilalarda kuzatilishi mumkin. Eng to'g'ri tanlov bugungi kun talabi bo'lgan demokratik uslubda farzand tarbiyalashdir, chunki bu uslubda yuqoridagi barcha uslub elementlari me'yor darajada olingan bo'lib, maqsadga qaratilgan tarbiyani amalga oshirishga yordam beradi.

Ota-onalarning farzandni tarbiyalashda ba'zi bir qiyinchilik va xatolari kuzatiladi. Ular quyidagilar:

1. Ota-onalarning farzand bilan muomalasining yetishmasligi.
2. Tarbiya uslubining to'g'ri tanlanmaganligi.
3. Farzandlarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik.
4. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o'quv muassasasining pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.
5. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi.
6. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida taqiqlashlar tizimi.
7. Harakatlarning maktab bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilik.
8. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari.
9. Qarorlar qabul qilishda kechikish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyatimizda tarbiya borasidagi eng katta muammo – bu yosh ota-onalarning farzand tarbiyasi borasida tajribalarining yetishmasligi hamda bu sohada bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilmasligidir. Yuqorida sanab o'tilgan kamchilik va xatolarga yo'l qo'ymasliklari uchun pedagogik tajriba hamda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlillaridan kelib chiqib, yosh ota-onalarga farzand tarbiyasi borasida bir qator tavsiyalarni berishni istadik.

Ota-onalarga farzand tarbiyasi borasida tavsiyalar:

1. Farzandingiz Oллоh bergan ne'mat, uni boricha qabul qiling.
2. Uni hech kim bilan solishtirmang.
3. Farzandingizni eshiting.
4. Farzandingizga ishonch bildiring.
5. Urushmang, xatosini tuzatishga yechim bering.
6. Farzandingizni mehnatga o'rgating.



7. Farzandingizga alohida vaqt ajrating.
8. Va'da bergach, so'zingiz ustidan chiqing.
9. Farzandingizning hamma istagini ham amalga oshiravermang.
10. Farzandingiz savollariga javob qaytaring.
11. Boshqalarning yonida tanbeh bermang, tanqid qilmang.
12. Farzandingizni taning.
13. Ular bilan o'rtangizga devor qo'ymang, ko'prik quring.
14. Farzand tarbiyasi borasida o'zingizni doimiy rivojlantiring.

Yuqoridagi farzand tarbiyasi borasidagi tavsiyalarimizning har biri alohida mavzu bo'la oladigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lib, ota-onalar ushbu tavsiyalarga amal qilsalar, baholi qudrat farzand tarbiyasida to'g'ri yo'nalishni topib, o'zlari orzu qilgan mustaqil, erkin fikrlovchi, maqsad sari harakat qiluvchi, yuksak darajadagi axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, jamiyatda munosib o'rin topa oladigan, intellektual salohiyatli, yetuk tarbiyali shaxsni kamol toptirishga erishishlari mumkin, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2017-yil 23-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4676839>
3. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2023. – 430 b.
4. Abdullayeva B., Xoliqov A., Farsaxonova D. va b. Umumiy pedagogika. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limi, 2021.
5. Farsaxonova D. R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'qitish texnologiyasi. – Toshkent: "Fan ziyosi", 2022. – 132 b.
6. Farsaxonova D. (2021). Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда миллий ғоя туйғусини шакллантиришнинг мультимедияли асослари // Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, 2(3).
7. Masaru Ibuka. Uchdan keyin kech. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 264 b.
8. Janten Kaya. Bola eshitganini emas, ko'rganini qiladi. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2023. – 272 b.
9. Yosh ota-ona kitobi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya trilogiyasi. I qism. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha qo'llanma / Tuzuvchi-mualliflar: A. Qodirov va boshq. – Toshkent: Muharrir, 2019. – 216 b.
10. Xadicha Kubro Tongar. Baqirmaydigan onalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 240 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.